

O'zbekistonda uzum quritishning bir nechta texnologik uslublari mavjuddir. Ular uzumzorlarga yaqin kichkina quritish maydonchalarida, uzumzor qator oralarida, plenka va matolar ostida quritish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shunday sxemalarda ochiq havoda, quyoshda va soya joyda bostirma tagidagi maxsus xonalarda, turli tuzilishdagi sun'iy uskunalarda quritiladi.

Meva quritadigan maydon kattaligi mahsulot turiga, miqdoriga hamda hududning ob-havo sharoitiga bog'liq. Yuqori temperaturali va nisbiy namligi past bo'lgan xududlarda kichikroq maydon, past temperaturali va nisbiy namligi yuqori bo'lgan xududlarda katta quritish maydoni talab qilinadi. O'rtacha 1 m² quritish maydonga 12-16 kg uzum yoyiladi.

Oltिंगugurt SO₂ tutatish uchun 27-30 m² (3,5x3,5x2,5 m) hajmda kamera bo'lishi lozim. Sig'imi 300-400 litr bo'lgan qozonli o'choq bo'lishi kerak. Qaynoq suv bilan uzumni objush qilish uchun (blansirovka), soya joyda quritish uchun ayvoncha xonalar, mahsulot va inventarlar, 5-6 ming dona taxtadan qilingan 90x60 sm va 60x80 sm savatlarni saqlash uchun omborlar kerak bo'ladi.

Quritishga mo'ljallangan uzumning kishmish navlari uchun shiraligi 23-35%, mayiz uchun 21-23% bo'lishi kerak. Uzunni quyoshda va soya joyda quritishning bir necha usullari mavjud.

Kishmishbop navlarga quyidagi navlar kiradi: Qora kishmish, Oq kishmish, Kishmish Sogdiana, Kishmish Botir, Kishmish Zarafshan, **mayizbop navlarga:** Kattaqo'rg'on, Sultoni, Qora janjal va boshqalar.

"Oftobi" usulida quritish. Bu qadimgi va eng oddiy usul. Uzun boshlariga oldindan ishlov berilmay, taxta patnislarga, qog'ozlar yoki beton qilingan yoki somonli loy bilan suvalgan quritish maydonlarga yoyib chiqiladi. 8-10 kundan so'ng uzum boshlari ag'darilib qo'yiladi.

Quritilgan mahsulotning chiqishi uzunni qand moddasiga qarab, 22-25% bo'ladi. Quritilgan

mahsulotning rangi to'q jigarrang, yuqori mazali sifatga ega.

Quritilgan **qora kishmishni "shig'ani", oq kishmishni "byedona"** deb ataladi. Bunday usulni kamchiligi quritish muddatini uzunligi (18-20 kun) va yomg'ir, chang va qushlardan himoyasizligidir.



Uzunni "oftobi" usulida quritish

Uzunlar qaynab turgan kaustik sodada blansirovka qilinadi. Natijada uzum mumg'ubori olinadi, uzum po'stida mayda yoriqchalar paydo bo'ladi va g'ujum po'sti ustidagi mumsimon g'ubor yo'qoladi. Natijada yoriqchalar orqali suv tez bug'lanadi va uzum g'ujumlarini qurish jarayoni tezlashadi. Bunda quritish muddati qisqaradi va quritilgan mahsulot chiqishi ortadi. Blansirovka qilingan uzum patnislari, qog'ozlarga yoki maydonga bir bosh qatlamda yoyiladi.



Uzunni objush qilish (blansirovka)

3-4 sutkadan so'ng uzum boshlari ag'dariladi va kerakli kondisiyagacha (16-18%) quritiladi. Quritish davomiyligi 6-12 sutka.

Tayyor mahsulotni chiqishi 25-26%. Ishqorlar quritilgan mahsulotda qolmaydi. Sababi uzum sharbatidagi organik kislotalar tomonidan bartaraf

qilinadi. Bu usulni kamchiligi och rangli uzum navlari bu usulda quritilganda, tabiiy ko'k rangini yo'qotadi, tayyor mahsulot qora-jigarrang tusoladi, natijada sifati pasayadi va mahsulot bir muncha past baholarda sotiladi.

"Shtabel" usulida quritish. Bu usul oq, qaxrabo, sariq, yashil va och pushti rangli uzumlardan yuqori sifatli quritilgan mahsulot olishni ta'minlaydi.

Bu usulda quyidagi jarayonlar bajariladi: blansirovkadan keyin mahsulotni oltिंगugurt angidridi bilan tutatiladi yoki oltिंगugurtli (sulfidli) kislotaga botiriladi. Oltिंगugurt angidridini sarfi 1 kg uzumga 0,6-0,8 g. Tutatish davomiyligi tiniq rangli uzumlar uchun 60-90 daqiqa.

Hamma ishlovlardan keyin patnislari uzumi bilan bir qator qilib joylashtiriladi va 2-3 kunduzgi quritishdan keyin 15-16 patnis ustma-ust (shtabelga) joylashtiriladi. 4-5 sutkadan keyin uzum boshlari ag'dariladi va patnislari o'rni almashtiriladi. Quritish davomiyligi ob-havo sharoitiga qarab 14 dan 24 sutkagacha boradi.



"Shtabel" usulida quritish

Uzun oltिंगugurt bilan tutatilganda kishmish (27-30%) va mayiz (26-27%) chiqishi yuqori bo'ladi. Uzun donalari sariq, qahrabo, tilla rangga ega bo'ladi.

"Soyaki" usulida quritish. Bu usulda asosan kishmish navli uzumlar quritiladi. Quritish uchun mo'ljallangan uzum, rangi bo'yicha puxta sarxillanadi.

Uzun paxsadevordan qurilgan, tabiiy ventilyasiyasi yaxshi bo'lgan uylarda quritiladi.

Uzum 1-2 sutka davomida, bandlari egiluvchan holatga keltirish uchun soʻlitaladi. Keyin uzum boshlari ikkitadan bogʻlanadi va tik romlarga osib qoʻyiladi. Quritilgan mahsulotni chiqishi 22-23%.



Soyaki xona

Plenka ostida quritish. Yogʻingarchilik koʻp boʻladigan xududlarda joylashgan xoʻjaliklarda uzumni jadal quritish mavsumida yogʻin-sochin boʻlib, xoʻjaliklar koʻpincha zarar koʻradi. Uzumni plenka yopilgan palatkalarda quritish usuli akademik M. Mirzayev nomli Bogʻdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tekshirish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va sinab koʻrilgan texnologiya boʻyicha amalga oshiriladi.

Yarim ochiq palatkalar quyidagi kattalikda barpo qilinadi: eni – 4 m, eng baland tepa qismi – 2,4 m, yon devorlari balandligi 1,6 m, bitta seksiya uzunligi – 4 m. Palatkaning ikkala yon tomoniga patnislarni joylash uchun etajerkalar oʻrnatiladi. Patnislarni joylash uchun xar bir etajerkada 10-12-tadan parallel pazlar kilinadi.



Plyonka ostida quritish



Ushbu buklet Bioversity/UNEP-GEF «Oʻzbekistonning qishloq xoʻjalik ishlab chiqarish tizimlarida ekosistemalarni boshqarish va qoʻllab-quvvatlash funksiyalarini yaxshilash uchun qishloq xoʻjalik ekinlari bioxilma-xilligini saqlash va undan barqaror foydalanish» loyihasi doirasida tayyorlandi va nashr etildi.

Taklif va mulohazalar uchun kontaktlar:

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bogʻdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti (akad. M. Mirzayev nomidagi BUvaVITI)

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Guliston qishlogʻi, Chimkent yoʻli koʻchasi

Tel.: (+99871) 220-24-42, (+99871) 220-26-82

Faks: (+99871) 220-26-48 **El. pochta:** buviti@mail.ru

Rasmda: Surxondaryo viloyati Termiz tumani Soliobod qishlogʻidan Yuldashev Odilning tomorqasidagi oʻstirilayotgan uzumning mahalliy Hasayni navi.

Tuzuvchilar: N.L. Djalilov, Ye.A. Doroxova, Sh.M. Axmedov, G.M. Karaxodjayeva

Professor A.Q. Qayimov umumiy tahriri ostida.

Alliance



Akademik M. Mirzayev nomidagi bogʻdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti

UZUMNI MAHALLIY USULDA QURITISH TEXNOLOGIYASI



Toshkent – 2021